

# “Pandemiya sharoitida fan va ta’lim” Xalqaro onlayn davra suhbat

Joriy yil 22-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Baxtiyor Ibragimov va bosh ilmiy kotibi G‘ayrat Baxadirov Qirg‘iziston Respublikasi Milliy Fanlar akademiyasi, Ta’lim va fan vazirligi hamda Konrad Adenaer nomidagi jamg‘arma hamkorligida tashkil etilgan “Pandemiya sharoitida fan va ta’lim” Xalqaro onlayn davra suhbatida ishtirok etdi. Davra suhbatini Qirg‘iziston Milliy Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Murat Jumataev, Ta’lim va fan vaziri Kanibek Isakov, Konrad Adenaer nomidagi jamg‘armaning Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy komissari Ronni Xayn kirish so‘zi bilan ochib berdilar.



Davra suhbatida Tojikiston, Qozog‘iston Fanlar akademiyasi vakillari, Qirg‘iziston Respublikasi oliy ta’lim muassasasi rahbarlari ishtirok etdi. Unda pandemiyaning fan va ta’lim sohalari rivojiga ta’siri, har bir davlatda olib borilayotgan ishlar, talabalarni o‘qitish tizimidagi masalalar muhokama qilindi va o‘zaro fikr

almashildi.